

**“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti  
«Gidromeloratsiya» fakultetining talabalari o‘rtasida “Oliy ta’lim muassasalarida  
odob-axloq va kiyinish madaniyati” mavzusida o‘tkazilgan umumprofilaktik tadbir**

**BAYONNOMASI №\_\_\_\_\_**

**“TIQXMMI” Miliy tadqiqot  
universitetining Qarshi irrigatsiya  
va agrotexnologiyalar instituti**

**Dars jadval  
asosida**

**Qatnashdilar  
Tyutorlar**

**KUN TARTIBI:**

**ESHITILDI.** "Axborot va murabbiylik soati"da Tyutor so'zi bilan ochdi:

Dastlab kun tartibidagi masala yuzasidan talabalarning institut xududida ichki tartib qoidaga, kiyinish madaniyatiga, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, manfaatlarini himoya qilish, reproduktiv salomatlik, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga asoslangan holda tarbiyaviy madaniyatni mustahkamlash borasida tushuntirish-targ'ibot ishlari xaqida alohida ta'kidlab o'tdi.

Xususan, institut “Odob-axloq” kodeksining 4-bob 11-moddasida talaba-qizlarga xos tashqi ko‘rinish masalasida alohida to‘xtalib o‘tilganligi, unda xodim, talaba va doktorantlarning institutga kelishi ruxsat etilgan formasiga turli din va konfessiyalar hamda milliylikka zid submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi elementlarni (kipa, kashaya, xoch, xijob, yuzning asosiy qismini to‘sib qo‘yuvchi jag‘ ostidan o‘ralgan ro‘mol va boshqalar) qo‘shishga yo‘l qo‘yilmasligi tushuntirilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, dunyoviy davlat sifatida, din davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da, davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligini, ya’ni vijdon erkinligiga e’tibor qaratilganligi va uning konstitutsion maqomi bilan belgilanligiga alohida e’tibor qaratdi.



Qolaversa, ma’ruzada “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadon iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsianing yangi tahriri ilova qilingan. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Birgina 1-moddada ro‘y bergen o‘zgarishni tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagilar namoyon bo‘ladi.

1. O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Konstitutsianing 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlesi quyidagicha o‘zgartirildi: O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo‘ladi. Davlat diniy e’tiqodidan qat’i nazar barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi. Yangi konstitutsianing 154-moddasi bilan, 1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emas, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o‘zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Boshqacha aytganda, bu norma – O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi. Qolaversa, 2021 yil 5 iyunda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘grisida» gi Qonunning yangi tahrirdagi nusxasi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e’tiqod huquqida, qaysi dinga munosabatidan qat’iy nazar fuqarolarning tengligini ta’minlash, shuningdek, Qonunning 5-moddasida yana ta’kidlanadiki, «O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e’tiqodga boshqalariga nisbatan biron bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi: diniy va o‘zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarini qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli diniy konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan hattiharakatlarga yo‘l qo‘yilmaydi», deb qat’iy belgilab qo‘yildi. Shundan so‘ng talabalar o‘zlarining qiziqtirgan savollariga javoblar olishdi



**Tyutor**

**A.To‘xliyev**